

LEXICO-SEMANTIC USE OF EUPHEMISMS IN THE KARAKALPAK LANGUAGE

Babaniyazova Nursulw Konisbayevna,
Ajiniyoz nomidagi NDPI tayanch doktoranti
babaniyazovanursulw500@gmail.com

Abstract. *This article examines the lexical-semantic features of euphemisms in the Karakalpak language, their sources of formation and thematic usage. The semantic nature of euphemisms, their semantic transformations and communicative functions are analyzed. Euphemistic units found in Mahmud Kashgari's "Dīwān Lughāt at-Turk" are compared with modern Karakalpak euphemisms. The study reveals that euphemisms are closely related to cultural values, religious beliefs and etiquette norms of the Karakalpak people. Thematic classifications of euphemisms are identified and their role in softening emotionally sensitive information in communication is demonstrated.*

Keywords: *euphemism, lexical semantics, Karakalpak language, taboo, semantic change, communication, stylistics.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qoraqalpoq tilidagi evfemizmlarning leksik-semantik xususiyatlari, ularning shakllanish manbalari va mavzuviy qo'llanishi tadqiq etiladi. Evfemizmlarning semantik tabiati, ma'no o'zgarishlari hamda kommunikativ vazifalari tahlil qilinadi. Dīwān Lughāt at-Turk asarida uchraydigan evfemistik birliklar zamonaviy qoraqalpoq tilidagi evfemizmlar bilan qiyosiy o'rganiladi. Tadqiqot natijalari evfemizmlarning qoraqalpoq xalqining madaniy qadriyatlarini, diniy e'tiqodlari va odob-axloq me'yorlari bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Shuningdek, evfemizmlarning mavzuviy tasnifi aniqlanib, ularning muloqot jarayonida hissiy jihatdan nozik ma'lumotlarni yumshatib ifodalashdagi o'rni yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *evfemizm, leksik semantika, qoraqalpoq tili, tabu, semantik o'zgarish, kommunikatsiya, stilistika.*

Аннотация. *В статье исследуются лексико-семантические особенности эвфемизмов каракалпакского языка, источники их формирования и тематические сферы употребления. Анализируются семантическая природа эвфемизмов, изменения их значений и коммуникативные функции. На основе сопоставительного анализа рассматриваются эвфемизмы, представленные в труде Махмуда Кашгари «Девону лугатит турк», и современные каракалпакские эвфемистические единицы. Выявлено, что эвфемизмы тесно связаны с культурными ценностями, религиозными представлениями и нормами речевого этикета каракалпакского народа. Определены основные тематические группы эвфемизмов и их роль в смягчении эмоционально окрашенной информации в процессе общения.*

Ключевые слова: *эвфемизм, лексическая семантика, каракалпакский язык, табу, семантические изменения, коммуникация, стилистика.*

Kirish. *Til jamiyatning eng muhim kommunikativ vositasi bo'lib, odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradi va saqlaydi. Til birliklari orqali nafaqat axborot almashinuvi, balki insonlarning his-tuyg'ulari, baholari va madaniy qadriyatlarini ham ifodalanadi. Shu sababli har bir tilning leksik tizimida ijtimoiy-axloqiy talablarga javob beradigan maxsus til birliklari shakllanadi. Shularning biri evfemizmlar hisoblanadi.*

Evfemizm yunon tilidagi eu "yaxshi", "yoqimli" va phemi "gapiraman" so'zlaridan kelib chiqqan. Tilshunoslikda evfemizm deb qattiq, noqulay, uyatli, tabu yoki yoqimsiz tushunchalarni yumshatib ifodalovchi til birliklariga aytiladi.

Qoraqalpoq tilida evfemizmlar xalqimizning dunyoqarashi, diniy e'tiqodlari, urf-odatlar va axloqiy me'yorlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib keladi. Ayniqsa, o'lim, qarilik, oila qurish, intim munosabat, jismoniy nuqsonlar kabi mavzularda evfemizmlarning qo'llanilishi keng tarqalgan. Ammo qoraqalpoq tilshunosligida evfemizmlarning leksik-semantik xususiyatlari va tematik tizimi maxsus tarzda to'liq o'rganilmagan. Shu sababli ushbu maqolada evfemizmlarning semantik xususiyatlarini, shakllanish manbalarini va qo'llanish doirasini tahlil qilish maqsad qilindi.

Natijalar va ularni tahlil qilish. Rus tilshunosi V.V.Vinogradovning ta'kidlashicha: "Leksikologiya - bu tilning lug'at boyligi va so'zlarning ma'nolari, ularning o'zaro aloqasi va nutqda qo'llanilishini o'rganadigan fandır". Uning fikricha, leksika tilning eng jonli va o'zgaruvchan qismi bo'lib, so'zlar orqali fikr, tuyg'u va ijtimoiy munosabatlar ifodalanadi.[1] Turkiy tillar tarixida Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari leksikologik tadqiqotning muhim bosqichi bo'lib, turkiy tillar leksikasini ilmiy asosda jamlagan ilk va eng nodir leksikologik manba hisoblanadi. Asarda turkiy qavmlarning so'z boyligi, so'zlarning ma'nolari, fonetik va grammatik xususiyatlari, shuningdek, sinonim va uning turlari izohlangan.[6] Mahmud Qoshg'ariy so'zlarni mavzuiy va semantik jihatdan yoritib, ularning etimologiyasiga, qo'llanilishiga va uslubiy xususiyatlariga ham e'tibor qaratgan. Asarda maqol-matallar, she'riy parchalar va real nutq namunalari keltirilishi so'zlarning jonli leksika ekanini ko'rsatadi.

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida juda boy leksik va semantik materiallar jamlangan bo'lib, unda evfemizmlar - ya'ni yoqimsiz, noqulay yoki og'ir ma'nodagi so'zlar o'rniga yumshoqroq, madaniyatga mosroq so'zlarni qo'llash muhim o'rin tutadi. Tilimizda uchraydigan "Óldi" degan to'g'ri ma'nodagi so'zning o'rniga Mahmud Qoshg'ariy lug'atida qadimgi turkiy tildagi "Uçdi" ("ushti") "Ketdi", "Yitdi" evfemizm birliklari berilgan bo'lib "Uçdi" evfemizmining ma'nosi "jan óz denesinen uship shuqtı" degan simvolik ma'noda qush metaforasi bilan, "Ketdi" evfemizm so'zi esa "Bul dúnyadan ketti" yumshatish so'zi orqali, "Yitdi" "Jan joğaldı" ma'nosida qayg'uni yumshatish uchun qo'llanilgan.[2] Bundan tashqari uning lug'atida insonning fazilatlarini yumshatish uchun qo'llaniladigan evfemizmlarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, qoraqalpoq tilida uchraydigan "bıjq adam" so'zi ko'p gapiradigan odamga nisbatan qo'llaniladi va bizlar uni to'g'ridan-to'g'ri "bıjq" demay, "odobsız", "huratsız" ma'nosini beradigan lug'atdagi "tili uzın" evfemizm birligidan foydalanamiz, "aqılı az" evfemizmi esa to'g'ridan-to'g'ri "ahmaq" so'ziga qaraganda yumshoqroq ma'noda keltirilgan.[3] Bundan ko'rinib turibdiki, Mahmud Qoshg'ariy lug'atida evfemizmlar xalqning madaniyati, diniy e'tiqodi va axloqiy qadriyatlarini aks ettiradi. Bu holat xalq tilining mayinligi, badiiyliigi va ijtimoiy ta'sirchanlik darajasini namoyon etadi.

Qo'llanilgan metodlar. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

leksik-semantik tahlil metodi;

qiyosiy-tarixiy metod;

deskriptiv metod;
tasnifiy metod;
kontekstual tahlil metodi.

Bu metodlar yordamida evfemizmlarning semantik tuzilishi, qo'llanish doirasi va funksional xususiyatlari aniqlandi.

Leksik-semantik nuqtai nazardan evfemizmlar so'z ma'nosini bevosita o'zgartirmagan holda, uning baholovchi, emotsional va konnotativ qatlamini yumshatadi. Qoraqalpoq tilining leksik tizimida evfemizmlar muhim o'rin egallab, xalqning dunyoqarashi, odob-axloq me'yorlari va nutq madaniyatini aks ettiradi. Evfemizmlar leksik-semantik munosabatlarda, ayniqsa sinonimik va baholovchi antonimik munosabatda o'rganiladi. Sh. Rahmatullayevning aytishicha, evfemizm ko'pincha ma'nodosh birlik sifatida paydo bo'lib, asosiy leksemadan emotsional-ekspressiv bahosi bilan farqlanadi.[5] U evfemizmi faqat stilistik vosita emas, semantik birlik deb hisoblaydi. Masalan, *oldi* → *dunyadan otti*, *qartaygan adam* → *jasi ulken adam* semantik birliklarda denotat bir, baholash va ifoda o'zgartirishini ko'rsatadi. Sh. Rahmatullayevning ishida evfemizmlar semantik ko'chish, ma'noning yumshashi, baholash komponentining almashtirilishi orqali gapda evfemizmlar toza so'z emas, o'sha berilgan so'zning yangi semantik varianti bo'ladi. So'zimizning dalili sifatida qoraqalpoq tilida uchraydigan o'lim va qarilik tushunchasi bilan bog'liq evfemizmlar misolida ko'rib chiqamiz. Masalan: *koz jumdi* ← *oldi* so'zining asosiy manosi "*oliv*" biroq "*kozdi jabru*" jismoniy ish-harakat hisoblanib, semantik nuqtai nazardan esa ma'nosi jismoniy amaldan → hayotning yakunlanishiga ko'chmoqda. Bu yerda so'zning asosiy mazmuni "*oliv*" o'zgarishidan, o'limni frazeologizm so'z orqali yumshatish tarzida yangi ma'noda qo'llanilgan. Ma'noning yumshatilishida "*oldi*" so'zining "*dunyadan otti*", evfemizmi bilan almashtirib qo'llanilishini keltirib o'tish mumkin. Bu yerdagi ikki so'zning ham asosiy ma'nosi bir xil bo'lgani bilan o'limni qattiq biologik fakt emas, o'tish jarayoni sifatida ko'rsatadi va gapdagi qayg'uni yengillashtiradi. Baholash komponentining almashtirib qo'llanilishida asosiy leksemadagi "*negative*" ma'nodagi so'z "*positive*" ma'nodagi evfemizm so'zga almashtiriladi. Masalan, "*qartaygan*" so'zi bevosita gapda salbiy baho beradi, agar uning o'rniga "*jasi ulken*", "*jasi ulli*" kabi evfemizmlar ishlatilsa, asosiy leksemadagi "*jas*" saqlanib, baholash komponenti salbiy bahodan ijobiy baholash komponentiga o'zgaradi. Bu baholash komponentining almashtirilishiga yaqqol misol bo'la oladi.

O'zbek tilshunosligida evfemizmi maxsus tarzda tadqiq etgan tadqiqotchilardan biri A. Omonturdiyev bo'lib, u o'zining nomzodlik dissertatsiya ishida evfemizmlarni leksik-semantik jihatdan tahlil qilgan va turli guruhlariga ajratib ko'rsatgan.[4] A. Omonturdiyev evfemizmi keng ko'lamda o'rganib, o'zbek so'zining evfemik asoslarini tadqiq qildi va uning fikricha evfemizmlarni etimologik, ijtimoiy-madaniy jihatdan o'rganish kerak deb hisoblaydi. Turkiy tilli xalqlardan asosan o'zbek va qoraqalpoq millatining tili, urf-odatlarini va an'analari bir-biriga yaqin ekanligini hisobga olib, tilshunos Anvar Omonturdiyevning

ushbu asaridagi leksik-semantik tasnifidan kelib chiqqan holda quyidagi keltirilgan tematik guruhlarda qoraqalpoq tilida uchraydigan evfemizmlarning qo'llanilishini ko'rib chiqamiz.

1. Oila qurish bilan bog'liq evfemizmlar;
2. Odobsizlik bilan bog'liq evfemizmlar;
3. Intim munosabatga oid evfemizmlar;
4. Murojaat shakllari;
5. Odam a'zolari va kiyim nomlari.
6. Jismoniy nuqsonlarni ifodalovchi evfemizmlar;
7. Ovqatlanish va fiziologik jarayonlar bilan bog'liq evfemizmlar;
8. Salbiy xatti-harakatlarga oid evfemizmlar;
9. An'ana va urf-odatlar bilan bog'liq evfemizmlar;
10. Qarish tushunchasiga oid evfemizmlar;
11. O'lim tushunchasiga oid evfemizmlar.

Xulosa. Keltirib o'tilgan tematik guruh asosida qoraqalpoq tilida uchraydigan evfemizmlarning qo'llanilish darajasi tahlil qilindi. Qoraqalpoq tilidagi evfemizmlarning qo'llanilishi qoraqalpoq xalqining madaniyati, axloqiy me'yorlari, psixologik ta'siri va urf-odat an'analari bilan bevosita bog'liq bo'lib, oila qurish, intim munosabat, o'lim, qarilik, jismoniy nuqsonlar va axloqsizlik bilan bog'liq evfemizmlar qoraqalpoq tilida eng ko'p uchraydigan mavzular ekanligi aniqlandi. Oila qurish, intim munosabat, o'lim, qarilik, jismoniy nuqsonlar va axloqsizlik bilan bog'liq evfemizmlarning mazmuni inson sha'ni, or-nomusi, sha'ni va ruhiy holati bilan bevosita aloqador bo'lganligi sababli, ijtimoiy muloqotda evfemizmlarga bo'lgan talab ortadi. Oila qurish bilan bog'liq evfemizmlar xalqimizning urf-odat an'anasining ajralmas qismi bo'lib, jamiyat hayotida ijtimoiy bosqich sifatida keng qo'llaniladi. O'lim bilan bog'liq evfemizmlar qayg'uli holatni emotsional jihatdan yengillashtirish maqsadida, intim munosabat va inson a'zolari bilan bog'liq evfemizmlar esa uyat, tabu va odob-axloq me'yorlarining kuchli saqlanishi uchun yumshatilgan evfemik birliklardan ko'proq foydalaniladi. Ovqatlanish va uning hazm bo'lishi, insonning salbiy faoliyati bilan bog'liq evfemizmlar kundalik muloqotda, publitsistik va og'zaki uslublarda kommunikatsiyada noqulaylik tug'dirmaslik uchun o'rtacha darajada qo'llaniladi. Murojaat bilan bog'liq evfemizmlar og'zaki nutqda, rasmiy va diplomatik munosabatlarda ko'proq hurmatni ifodalash maqsadida qo'llanilsa, ayrim urf-odat bilan bog'liq evfemizmlar neytral va rasmiy ma'noda emotsional jihatdan yumshatishni talab qilmaganligi uchun tilimizda kam foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, qoraqalpoq tilida evfemizmlar eng ko'p inson sha'ni, uyat, hayot va o'lim, intimlik va oila bilan bog'liq mavzularda uchraydi. Eng kam evfemizmlar esa rasmiy va neytral, aniqlik talab etiladigan holatlarda qo'llaniladi. Evfemizmlarning mavzuviy qo'llanilish darajasi qoraqalpoq xalqining ruhiy dunyosini, madaniy qadriyatlarini va ijtimoiy me'yorlarini yaqqol ko'rsatib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘uxati:

1. Виноградов В. В. Лексикология и лексикография // Избранные труды. — М.: Наука, 1977. — С. 118–119.
2. Махмуд Кашгари. Диван лугат ат-турк. Т. I. — М.–Л.: АН СССР, 1960. — С. 84–86, 112–113.
3. Махмуд Кашгари. Диван лугат ат-турк. Т. II. — М.–Л.: АН СССР, 1961. — С. 47–48.
4. Омонтурдиев А. Ўзбек нутқининг эвфемик асослари: филол. фан. номз. ... дисс. — Тошкент, 1997. — Б. 45–52.
5. Раҳматуллаев Ш., Махмудов Н., Холманова З., Ўразова И., Рихсиева К. Ўзбек тили фразеологик луғати. — Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 1978. — 408 б.
6. Серебренников Б. А. Общее языкознание и тюркология. — М.: Наука, 1972.

